

SPECIAL ISSUE

VOLUME II | ISSUE 3 | MAY-JUNE

Journal of Culture and Art

**КУЛТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ**

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at www.imfaktor.com

 **IMFAKTOR**
Science driven pages

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР 3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE 3

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович
Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович
Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Чолғу ижрочилиги ва мусиқа назарияси” кафедраси
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич
Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна
Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна
Ботирова Хилола
Турсунбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “IMFAKTOR Pages” илмий нашриёти , 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

МАДАНИЯТ ВА САҢЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

NURMETOVA Dilfuza Qadamovna*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy**musiqa san'ati instituti**o'qituvchi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.12594058>

О'QUVCHILARДА CHOLG'U IJROCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI (DUTOR CHOLG'USI MISOLIDA)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarda cholg'u ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari, o'quvchilarda dutor ijrochilik mahoratini shakllantirishda dutor cholg'usining tarixiy-nazariy bilimlari bilan yaqindan tanishtirib borish ularda ijro ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida bilimlar yoritilgan. Shuning bilan bir qatorda, dutor ijrochiligida o'quvchi musiqa asarlarini milliy cholg'ular jo'rligida ijro etishi ham a'lohida ahamiyat kasb etishi haqida bilimlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: milliy musiqiy bilimlar, tarixiy-nazariy, san'at, dutor, doira, rubob, etnik turmush taraqqiyot, ma'naviyat, pedagog, ko'nikma, malaka.

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОЙ ИГРЫ У СТУДЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ ИНСТРУМЕНТА ДУТОР)

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены пути формирования навыков игры на музыкальных инструментах у студентов, знания о том, что важно знакомиться с историческими и теоретическими знаниями о музыкальных инструментах при формировании исполнительских навыков на музыкальных инструментах у студентов, что важно для формирования их исполнительского мастерства. Помимо этого, особое значение в исполнительской деятельности студента имеет знание того, что исполнение учащимся музыкальных произведений в сопровождении национальных инструментов.

Ключевые слова: национальные музыкальные знания, историко-теоретические, искусство, дутор, доира, барабан, рубоб, развитие этнической жизни, духовность, педагог, мастерство, квалификация.

WAYS FOR FORMING INSTRUMENTAL PLAYING SKILLS IN STUDENTS (BY THE EXAMPLE OF THE DUTOR INSTRUMENT)

ANNOTATION

This article discusses ways to develop skills in playing musical instruments in students, the knowledge that it is important to get acquainted with historical and theoretical knowledge about musical instruments when developing performing skills on musical instruments in students, which is important for the formation of their performing skills. In addition, of particular importance in the student's performing activities is the knowledge that the student's performance of musical works accompanied by national instruments.

Key words: National musical knowledge, historical and theoretical, art, dutor, doira, drum, rubob, development of ethnic life, spirituality, teacher, skill, qualifications.

O'zbek milliy cholg'ulari nihoyatda xilma-xil bo'lib, xalqimiz tomonidan ardoqlanib kelinmoqda. Xususan sharq olimlarining ilmiy-nazariy qarashlari ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning inson ijtimoiy hayotida tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha bilimlarni yoritishga muvaffaq bo'lganlar. Abu Nasr Al-Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi" ("Kitob al-musiqa al-kabr"), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) "Kitobi ul-shifo" qomusida, Muso Al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) "Olijanoblik haqida kitobi" yoki "Sharofiya kitobi", Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) "Musiqa haqidagi risola" kabi musiqiy risolalarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida batafsil bilimlar bayon etilgan [1].

Bugungi kunda an'anaviy cholo'u ijrochiligi amaliyotida: nay, qo'shnay, rubob, tanbur, ud va o'ijjak cholg'ulari qatorida dutor cholo'usining ham o'rni beqiyosdir. Dutor cholo'usi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni Mavlono Zaynulobiddin Al-Xusayniyning Alisher Navoiyga bao'ishlangan "musiqiy ilm va amaliyot qonuni" risolasida uchramiz. XV asrning ikkinchi yarmida bitilgan bu risolada o'sha zamonda kvarta intervali oraliq'ida sozlanuvchi, o'n bir pardaga ega bo'lgan dutor tavsiflanadi.

Dutor cholo'usi to'ov'risida ma'lumotlar beruvchi yana bir manba Al-Husayniy risolasidan ikki yuz yil keyin yozilgan "Risoi musiqiy" asari bo'lib, uning muallifi mashhur xofiz, bastakor va changchi sozanda Darvish Ali bin Mirzo Ali bin Xo'ja-Maxmud Munavvardir. Darvish Alining asari ikki bo'limdan, ya'ni nazariy va tarixiy qismlardan iborat bo'lgan. O'quvchi-yoshlarga milliy cholg'ularimizning yaratilish tarixi, shakllanish bosqichlari, rivojlanish jarayonlari haqida ma'lumotlar berish, ularni milliy cholg'ularimizga nisbatan qiziqish va o'rganishga intilish ruhida tarbiyalash musiqa ta'limi oldida turgan muhim pedagogik vazifalardan bir hisoblanadi.

Bo'lajak dutor ijrochiligi o'qituvchilarining o'quvchilarda cholo'u ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirishda dastlab ularni milliy cholg'ulariga xos tarixiy-nazariy bilimlar bilan ularning estetik ongini qurollantirib borish talab qilinadi. Har qanday ijrochilik sa'nati ko'nikmalarini egallash uchun uning yaralish tarixi hamda nazariy bilimlarini chuqur o'zlashtirish talab qilinadi.

O'zbek milliy musiqa san'atida xalq cholg'ularining kelib chiqishi juda uzoq davrlarga mansubdir. Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bo'liq bo'lgan. Undan keyin shovqinli cholg'ular paydo bo'ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidlagan, shovqinli cholg'ular ta'sirini ko'paytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirgan. Shu tariqa qadimgi Sharq musiqa madaniyati doirasida o'zbek musiqa san'atida an'anaviy cholo'u ijrochiligi ham shakllanib bordi.

An'anaviy cholo' u ijrochiligi o'zbek xalqining etnik turmush taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan hamda turmush tarzi, egallagan kasbu kori, va mehnat faoliyati bilan boo'liq tarkibiy qismi sifatida rivojlanib borgan. Odamlar cholg'ular jo'r ligida turli xil mehnat qo'shiqlarini, o'yin va raqslarni turli marosimlarda, bayramlarda ijro etganlar. Shuningdek, mavsumiy bayram va an'ana hisoblangan «Navro'z», «Lola sayli», «Xosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli» kabi mavsumiy bayramlarda an'anaviy cholg'ular keng qo'llanilgan. Bunday ommaviy sayllar va bayramlarda cholo' u ansamblari ham tashkil etilgan. Ayniqsa karnay, surnay, doira, noo'ora va urma zarbli musiqa cholg'ularidan foydalanilgan bo'lsa, hovlilarda, ayollar davrasida dutor cholo'usini ijro qilish va unga jo'r bo'lib kuylash ularning sevimli masho'ulotlaridan biri hisoblangan [3].

Musiqiy cholg'ular inson ma'naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita ya'ni xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir sozanda ustalari tomonidan yasalgan. Milliy cholg'ular uzoq yillar mobaynida oo'zaki, yozma manbalar zamirida avloddan-avlodga o'tib shakllanib, takomillashib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda cholg'ular evolyutsiyasi ham amalga oshmoqda [4].

O'zbek xalq cholg'ulari musiqiy taraqqiyot davrida o'zining cholo' u xususiyatlari: shakli, tuzulishi, tembri va tasnifiga ega bo'ldi. Shu bilan bir qatorda xalq cholg'ularining o'ziga xos tovush tusi, xususiyatlarini ham saqlab qolgan. Jumladan, o'ziga xos tuzilishi va xususiyatlarini to'liq holda saqlab qolgan nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, o'ijjak, qo'biz kabi xalq cholg'ularining an'anaviy ko'rinishlarda bizning davrimizgacha etib kelgan. Shu kabi bilimlarni o'quvchilarda nazariy tushunchalar sifatida shakllantirish orqali musiqa san'atining qadimiy turi ekanligi hamda ularda ijrochilik mahoratini tarkib toptirishga oid bilimlar hosil bo'ladi [2].

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholo'uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblari chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholo'uchilar o'z davrining etuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu erda ustoz-shogird an'analari qaror topdi va rivojlandi. Ayni shu paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholo' u asboblari yangi namunalari kashf etildi.

Cholo' u ijrochiligidan ta'lim berish mutaxassisidan turli bilim, ko'nikma va qobiliyat talab etadigan faoliyat hisoblanadi. Dutor cholo' u ijrochiligi o'qituvchisi uchun faqat sozanda bo'lishning o'zi etarli bo'lmay, undan pedagogik fikrlash, o'quvchining shaxsiy individual qobiliyatlarini o'rganishni bilishi, o'quvchilarning psixologik imkoniyatlarini o'rganishi uning individual xususiyatlarini inobatga olish kabi sifatlarga ega bo'lish lozim bo'ladi.

Cholo' u ijrochiligidan ta'lim beradigan o'qituvchi pedagogika va psixologiya sohalarini ham bilishi kerak. O'quvchi - yoshlar o'qituvchisini adolatli va talabchan, muommolarini to'o'ri hal qilishga o'rgatuvchi shaxs sifatida biladi. Shogirdlar ustozidagi har bir noaniq harakatlarni o'z vaqtida ilo'aydi. Ayrim o'quvchilar paydo bo'lgan muammoni asosan bir taraflama, voqeaning emotsional tarafiga asoslangan holda hal qilmoqchi bo'ladi. O'z o'quvchisining psixologiyasini yaxshi o'rganib, tushungan o'qituvchi bunday paytda talabaga muayyan holatdan to'o'ri xulosa qilib olishda yordam berishi lozim. Pedagog o'z fikrini doimo xaqqoniy fikrga asoslangan holda ishontirish yo'li bilan tushuntirishi kerak.

O'zaro ishonch va ijobiy munosabatning shakllanishida o'qituvchi pedagogning xulqi, muomala madaniyati katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar o'zlari xurmat qilib yoqtirgan o'qituvchilarga taqlid qilishlari yaxshi ma'lum. Agarda pedagogning so'zi bilan amaldagi ishlari orasida to'la mutanosiblik, bo'lsa, o'quvchilarning shu o'qituvchiga bo'lgan hurmati ortadi. O'quvchiga nisbatan oddiy samimiy munosabatda bo'lish o'qituvchi pedagoglarning asosiy vazifasidir.

Milliy madaniyatimizda qo'llaniladigan musiqa cholg'ularini foydalanish o'rinlariga qarab shartli ravishda 2 guruhga - professional ijrochilikda qollaniladigan va folklor cholg'ulari turlariga ajratish mumkin. Professional ijrochilikda qo'llaniladigan cholg'ularning o'zi ham an'anaviy musiqa ijrochiligida ishlatiladigan cholg'ular hamda akademik ijroda ishlatiladigan cholg'ular turlariga bo'linadi. An'anaviy xalq cholg'ulari tarkibidan joy olgan cholg'ular qatoriga tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, sunray, qo'shnay, karnay, g'ijjak, chang, qonun, doyra, nog'oralarni kiritishimiz mumkin.

O'zbek musiqa ijrochiligi, boshqa sharq xalqlari musiqalari kabi o'ziga xos sayqallarga boy, dardli va tarovatli ohanglar tarannum etishga asoslangandir. Dutor cholo'u sozini ijrochi qo'lida ushlab holatidan, toki mukammal ovozlari talqiniga bo'lgan jarayonlarni o'qituvchi nazoratida amalga oshirishi muhim hisoblanadi. O'quvchilarning dutor cholo'u ijrochiligini o'qishga bo'lgan ehtiyojlarni nazarda tutib, Respublika musiqa maktablarida turli cholg'ulari qatorida dutor sinfi ham tashkil qilingan. Keyingi yillarda dutor sinfida o'qitish tajribasi o'quv yurtlarida, xususan bolalar musiqa va san'at maktablarida dutor-pirima, dutor alt va dutor-tenor (an'anaviy) ommalashib bormoqda. Buning natijasi yosh avlodlarimizni dutorga bo'lgan ishtiyoqlari tobora kuchayib bormoqda.

Bolalar musiqa va san'at maktablarining besh yillik ta'lim yo'nalishiga mo'ljallangan bo'lib, bu davr ichida o'quvchilarda musiqa ijrochiligining professional mahoratini egallashi va notaga qarab ijro etish malakasini shakllantirib borish lozimdir. Bugungi kunda dutorning ko'plab ijrochilik namunalari shakllangan. Asosan har bir cholo'uda bo'lgani kabi dutor cholo'usida ham o'ziga xos ijro uslublari mavjud. Mana shunday ijro uslublari haqida o'quvchilarni yaqindan tanishtirish, ularda ijro faoliyatini yo'lga qo'yishni amalga oshirib borish lozim. Buning natijasida o'quvchilarda dutor ijrochilik mahoratining oshib borishiga imkon yaratiladi. O'quvchilarda dutor cholo'usida to'g'ri o'tirish ya'ni pastanofkani to'g'ri qo'ya bilish, bu esa ijrochining o'zi ijro etayotgan asarini mohirlik bilan ijro etishini ta'minlaydi.

O'quvchilarga dars jarayonida belgilangan majburiy ijro dasturi hisoblangan asarlar bilan cheklanib qolmay, o'z dunyo qarashini muntazam kengaytirib borishi uchun dasturdan tashqari kichik mashqlardan ham taqdim qilib borish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarda dutor chalayotganida qo'l muskullarini taranglashtirmay o'ng qo'l bilagini hamda chap qo'l barmoqlarini erkin harakat qilishga o'rgatish kerak. Ijro paytida bukchaymasligi uning yelkalari esa bir xil balandlikda bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Mashqulot davomida o'quvchining qo'llari tolmasligi va qattiq charchamasligiga e'tibor beriladi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarda dutor ijrochilik mahoratini shakllantirishda dutor cholo'usining tarixiy-nazariy bilimlari bilan yaqindan tanishtirib borish ularda ijro ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Dutorda ijro etayotganda o'quvchi musiqa asarlarini milliy cholg'ular jo'rligida ijro etishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy cholg'ulardan masalan: doira jo'rligida dutor chalish, o'quvchilarni ansamblda ijro etishga o'rgatadi. Bu esa o'quvchilarning ritmik eshitish qobiliyatini rivojlantiradi.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES

1. Rasultoyev J.K. “O`zbek dutor ijrochiligi” Toshkent.:. 6-bet. 2. F.Rasulova
2. “Bolalar musiqa va san`at maktablari uchun o`quv dasturi” Toshkent - 2019 y.
3. Qilicheva Hayotxon Inoyatovna “Dutor cholg`usida o`qitish uslibiyoti” Toshkent2017 y.
4. G.Muhammedova “Dutor darsligi” 2005 y

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР 3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE 3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz